



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari...	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'liqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi .....	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi .....	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik .....	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations .....	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi .....	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida .....	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish .....	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan .....	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari .....	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari .....	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<a href="#">Xidirov Faxriddin Fozilovich</a>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<a href="#">Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</a>	



# MUSIQA FANLARINI O'QITISHDA INQUIRE- BASED LEARNING TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH METODLARI

Raximova Dilbar Rizakulovna

Samarqand davlat pedagogika instituti "Musiqqa ta'limi" kafedrasida xodimi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada musiqa fanlarini o'qitishda "Inquiry-based learning" texnologiyasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari, metodlari va samaradorligi yoritilib, uning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, izlanish olib borishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishda ushbu texnologiyaning o'ziga xos didaktik imkoniyatlari muhim o'rin tutishi ta'kidlangan. Shuningdek, "Inquiry-based learning" texnologiyasini musiqa ta'limiga integratsiya qilishning zamonaviy yondashuvlari hamda raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa ta'limi, Inquiry-based learning, izlanishga asoslangan ta'lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, ijodiy faollik, muammoli ta'lim, loyiha metodi.

**Abstract:** This article discusses the pedagogical opportunities, methods, and effectiveness of using "Inquiry-based learning" technology in teaching music subjects and scientifically substantiates its significance in the modern educational system. It is emphasized that this technology plays an important role in developing students' independent thinking, research abilities, problem-solving skills, and creative approaches in the learning process. In addition, the article highlights modern approaches to integrating "Inquiry-based learning" technology into music education, as well as the effective use of digital educational tools.

**Key words:** music education, Inquiry-based learning, inquiry-based education, innovative pedagogical technologies, interactive methods, creative activity, problem-based learning, project method.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются педагогические возможности, методы и эффективность использования технологии "Inquiry-based learning" (обучение, основанное на исследовании) в преподавании музыкальных дисциплин, а также научно обосновывается её значение в современной системе образования. Подчеркивается, что данная технология играет важную роль в развитии у обучающихся самостоятельного мышления, исследовательских навыков, способности анализировать проблемные ситуации и творческого подхода в процессе обучения. Кроме того, в статье освещаются современные подходы к интеграции технологии "Inquiry-based learning" в музыкальное образование, а также возможности эффективного использования цифровых образовательных ресурсов.

**Ключевые слова:** музыкальное образование, Inquiry-based learning, исследовательское обучение, инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, творческая активность, проблемное обучение, метод проектов.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy yondashuvini shakllantirish hamda kompetensiyaviy ta'limni takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, musiqa fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, xususan, "Inquiry-based learning" (tadqiqotga asoslangan ta'lim) texnologiyasidan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiya o'quvchini tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki bilimlarni mustaqil ravishda izlovchi, tahlil qiluvchi va kashf etuvchi faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu yondashuv o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish hamda amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash uchun samarali pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning uzluksizligini ta'minlash, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish hamda o'quvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan <sup>[1]</sup>.

Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish muhim vazifa sifatida e'tirof etilmoqda <sup>[6]</sup>. Bu esa ta'lim jarayoniga "Inquiry-based learning" (izlanishga asoslangan ta'lim) yondashuvini joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi. Mazkur yondashuvning mazmuni musiqa fanlarini o'qitish jarayoni bilan ham bevosita bog'liq bo'lib, o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy metodlardan foydalanishni talab etadi. Shu jihatdan, "Inquiry-based learning" texnologiyasi ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur yo'nalishda pedagog olimlar, jumladan, John Dewey, Jerome Bruner, Seymour Papert hamda Lev Vygotskiylarning ilmiy qarashlarida o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantirish, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish va izlanishga tayangan ta'limning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan <sup>[2]</sup>. Ularning ilmiy g'oyalari bugungi kunda "Inquiry-based learning" texnologiyasining nazariy asoslarini tashkil etadi.

Musiqa fanlarini o'qitishda ushbu yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, eshitish va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish hamda ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki musiqa ta'limi faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki tinglash, tahlil qilish, tasavvur etish va ijodiy ifoda orqali bilimni mustaqil kashf etish jarayonini ham qamrab oladi. Shu sababli "Inquiry-based learning" texnologiyasi musiqa ta'limi jarayonida samarali didaktik yondashuvlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inquire-based learning (IBL) – bu o'quvchilarning tayyor bilimlarni qabul qilishidan ko'ra, savollar berish, izlanish olib borish, muammoni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish orqali bilimni egallashiga asoslangan zamonaviy ta'lim yondashuvidir <sup>[7]</sup>. Bu metodda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi (fasilitator) rolini bajaradi. O'quvchi esa faol tadqiqotchi sifatida bilimni o'zi kashf etadi. Asosiy bosqichlari shundan iboratki, savol yoki muammo qo'yish; Kuzatish va ma'lumot yig'ish; Tajriba yoki izlanish olib boorish; Tahlil qilish; Xulosa chiqarish va natijani taqdim etish kabilardir.

Inquire-based learning metodining asosiy g'oyasi "O'rganish – bu tayyor javobni olish emas, balki savol orqali bilimni kashf etish jarayonidir" <sup>[7]</sup>.

Inquire-based learningga asoslangan ta'lim – bu o'quvchilarning tayyor bilimlarni passiv qabul qilishidan ko'ra, ularning izlanish, savol qo'yish, muammolarni tahlil qilish, tajriba o'tkazish va mustaqil xulosa chiqarish jarayoni orqali bilimni egallashiga asoslangan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Ushbu texnologiya ta'lim jarayonida o'quvchini markazga qo'yib, uni faol tadqiqotchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyaning mazmuni shundan iboratki, o'quvchilar bilimni tayyor holda emas, balki o'zlari kuzatish, izlanish, muammoli vaziyatlarni hal etish va mantiqiy tahlil qilish orqali kashf etadilar. O'qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki jarayonni yo'naltiruvchi, savollar beruvchi va o'quvchilarning izlanish faoliyatini tashkil etuvchi fasilitator rolini bajaradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

"Inquiry-based learning" asosidagi ta'lim jarayoni odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: muammo yoki savolni aniqlash, faraz ilgari surish, ma'lumot to'plash, tajriba yoki kuzatish o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish hamda yakuniy xulosa chiqarish. Ushbu bosqichlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur texnologiyaning asosiy mazmuniy jihatlaridan biri o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, bunda muammoni anglash, uni tahlil qilish va samarali yechim topish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Shuningdek, ushbu yondashuv hamkorlikda ishlash, muloqot qilish va o'z fikrini asoslab bera olish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni ham mustahkamlaydi.

Musiqa fanlarini o'qitishda "Inquiry-based learning" texnologiyasidan foydalanish zamonaviy pedagogik paradigmalarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuvning mohiyati shundan iboratki, ta'lim jarayonida o'quvchi tayyor bilimlarni qabul qiluvchi passiv subyekt emas, balki musiqiy hodisalarni kuzatuvchi, tahlil qiluvchi, savollar qo'yuvchi va mustaqil xulosa chiqaruvchi faol tadqiqotchi sifatida



namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, "Inquiry-based learning" musiqa ta'limini an'anaviy reproduktiv o'qitish modelidan chiqarib, uni ijodiy, muammoli va tadqiqotga asoslangan jarayonga aylantiradi.

Mazkur texnologiyani musiqa fanlarini o'qitishda samarali qo'llash bir qator metodik yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Avvalo, savol asosida o'qitish metodi muhim o'rin tutadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarda muammoli vaziyatni yuzaga keltiruvchi ochiq savollarni qo'yadi. Masalan, "Nima uchun ushbu musiqiy asarda kayfiyat o'zgaradi?", "Ritmning o'zgarishi badiiy ifodaga qanday ta'sir ko'rsatadi?" kabi savollar o'quvchini mustaqil izlanishga yo'naltiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarda tanqidiy fikrlash hamda musiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, muammoli ta'lim metodi "Inquiry-based learning"ning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodda o'quvchilarga muayyan musiqiy muammo yoki vaziyat taqdim etiladi va ular uni turli yondashuvlar asosida hal qilishga harakat qiladilar.

Loyiha asosida o'qitish (Project-based learning) esa musiqiy ta'limda inquiry yondashuvining yanada chuqur shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu metodda o'quvchilar kichik guruhlarda musiqiy loyiha ustida ishlaydilar. Jumladan, milliy musiqiy meros namunalarini tahlil qilish, muayyan janrning rivojlanish bosqichlarini o'rganish yoki ijodiy musiqiy mahsulot yaratish kabi topshiriqlarni bajaradilar. Bu jarayon o'quvchilarda hamkorlik, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

M.Ochilov ta'lim jarayonida interaktiv va muammoli yondashuvlarning ahamiyatini yoritib, o'quvchilarda tahliliy fikrlash hamda ijodiy faoliyatni rivojlantirish zarurligini asoslab beradi <sup>[3]</sup>. Bu esa musiqa fanlarini o'qitishda "Inquiry-based learning" texnologiyasining metodik asoslarini mustahkamlaydi.

U.Tolipov va M.Usmonboyevalarning ilmiy ishlanmalarida esa kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantirish hamda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari keng yoritilgan <sup>[4]</sup>. Ushbu ilmiy qarashlar "Inquiry-based learning"ning metodologik asoslari bilan uyg'unlashadi.

Musiqani o'qitish jarayonida o'quvchilar uchun moslashtirilgan musiqiy vositalar va o'quv materiallaridan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bunday vositalar tarkibiga vizual yordamlar, audio kurslar, maxsus texnik qurilmalar hamda moslashtirilgan dasturiy ta'minotlar kiradi. Ushbu vositalardan foydalanish o'quvchilarning musiqiy materialni chuqurroq idrok etishi, eshitish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi <sup>[5]</sup>.

Musiqa ta'limi jarayonida individual yondashuvni qo'llash o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv asosida individual yoki kichik guruhlar bilan tashkil etiladigan musiqiy mashg'ulotlar o'quvchilarning o'z imkoniyatlariga mos ravishda bilim va ko'nikmalarni egallashiga sharoit yaratadi. Natijada har bir o'quvchi o'ziga xos tezlikda va qulay usulda musiqani o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Quyida "Inquiry-based learning" metodlaridan biri – muammoli savol asosida o'qitish metodiga misol keltiriladi. Muammoli savol asosida o'qitish metodi "Inquiry-based learning" texnologiyasining muhim shakllaridan biri bo'lib, unda ta'lim jarayoni o'quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki ularni muammoli savol yoki kognitiv ziddiyatli vaziyat orqali izlanishga yo'naltirish asosida tashkil etiladi. Ushbu metodning asosiy mohiyati o'quvchini fikrlashga undovchi savollar yordamida bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Muammoli savol asosida o'qitish metodining ichki mazmuni o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro hamkorlikda tashkil etilishiga asoslanadi. Bunda o'qituvchi bilim beruvchi subyekt sifatida emas, balki yo'naltiruvchi va muammoli vaziyat yaratuvchi sifatida ish-tirok etadi. O'quvchi esa savolga javob topish jarayonida kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish kabi bilish amallarini bajaradi.

Metodning ichki tuzilmasi quyidagi bilish jarayonlarini o'z ichiga oladi:

- muammoli vaziyatni anglash;
- savolni tushunish va faraz (gipoteza) ilgari surish;
- izlanish va tahlil jarayonini amalga oshirish;
- natijalarni solishtirish va tekshirish;
- ilmiy asoslangan xulosa chiqarish.

Mazkur jarayon o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Musiqa fanlarini o'qitishda muammoli savol asosida o'qitish metodi o'quvchilarning musiqiy idroki, eshitish qobiliyati va estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqa san'ati o'z tabiatiga ko'ra obrazli va emosional bo'lgani sababli, undagi har bir asar turli talqin va tahlilni talab etadi. Bu esa muammoli savollar qo'yish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Dars jarayonida o'qituvchi musiqiy asarni tinglatishdan oldin yoki keyin muammoli savollar beradi. Masalan: "Nega ushbu asarda temp o'zgarishi kuchli emosional ta'sir yaratadi?", "Ohangdagi o'zgarishlar asarning

g'oyasini qanday ifodalaydi?" kabi savollar o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi. Ular musiqani diqqat bilan tinglaydi, ritm, ohang, dinamika va ifoda vositalarini tahlil qiladi hamda o'z xulosalarini shakllantiradi.

Amaliy jarayonda o'quvchilar musiqiy asarni bir necha marotaba tinglaydi, uning tuzilishini tahlil qiladi, guruhlarda fikr almashadi va o'z talqinlarini ilmiy hamda estetik jihatdan asoslab beradi. Natijada o'quvchilarda musiqiy tafakkur, eshitish madaniyati va ijodiy yondashuv ko'nikmalari rivojlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Musiqqa fanlarini o'qitishda Inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining muhim didaktik yo'nalishlaridan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirish hamda tahliliy va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyaning asosiy o'ziga xosligi shundan iboratki, u ta'lim jarayonida o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt emas, balki bilimni mustaqil kashf etuvchi, savol qo'yuvchi va muammoli vaziyatlarni hal etuvchi faol shaxs sifatida shakllantiradi. Bu esa musiqqa ta'limini an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda interaktiv, ijodiy va tadqiqotga yo'naltirilgan jarayonga aylantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Xalq so'zi. – T., 2020. – 24 sentabr. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. National Research Council. 2000. Education Standards: A Guide for Teaching and Learning. Washington, DC: The National Academies Press <https://www.nationalacademies.org/publications/9596>
3. M. Ochilov, Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Toshkent: Fan va texnologiya, 2020, 85-bet
4. U. Tolipov, M. Usmonboeva, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat, Toshkent: Noshir, 2016, 134–138-betlar
5. <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/14672/18782>
6. <https://www.bing.com/videos/search?q=tadqiqotlarga+asoslangan+ta%27lim>
7. [https://en.wikipedia.org/wiki/Inquiry-based\\_learning](https://en.wikipedia.org/wiki/Inquiry-based_learning)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.